

IJTIMOIIY SOHADAGI MILLIIY MANFAATLARGA TAHDIDLARNI O'RGANISHDA INDIKATIV YONDASHUVNING O'ZIGA XOSLIGI (yoshlar bandligi misolida)

N.B. Bakirova
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqola yoshlar bandligi misolida ijtimoiy sohaga oid milliy manfaatlarga tahdidlarni o'rganishda indikativ yondashuvning xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Unda milliy manfaatlarni ta'minlashda tizimli yondashuvning ahamiyati, yoshlar bandligi bo'yicha davlat siyosatining natijalari va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlash va baholashda indikatorlardan foydalanish usullari bayon etilgan. Mazkur izlanish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida samarali tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asoslarni yaratishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Milliy manfaatlar, indikativ yondashuv, yoshlar bandligi, ijtimoiy siyosat, indikatorlar, tahdidlarni baholash, tizimli tahlil.

Tadqiqot ishini samarali tashkil etishda muammoni to'g'ri shakllantirish, ilmiy ishning maqsad va vazifalarni, qamrovini aniqlash, muammoni tadqiq etish metodikasini ishlab chiqish kabilar ilmiy tadqiqot dasturining muhim elementlari hisoblanadi. Shuni aytish joizki, tajribali olimlar ham tadqiqotning metodologik dasturini tuzishga butun tadqiqotga ketgan vaqtning taxminan 30 foizini sarflaydilar, ya'ni tadqiqotning dasturi ilmiy ishning muvaffaqiyatli yakunining garovi hisoblanadi.

Tadqiqot dasturining har bir elementini shakllantirishda tegishli talab va tamoyillarga amal qilinishi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ta'minlanishi lozim. Xususan, tadqiqot mavzusini tanlashda, eng avvalo, muammoli vaziyatning mavjudligiga e'tibor qaratiladi. Barcha turdagi va qamrovdagi tadqiqot ishlari ma'lum iste'molchilar manfaatlari bilan bog'liq bo'ladi va ular mazkur yo'nalishlar bo'yicha asosiy buyurtmachi hisoblanadilar.

Milliy manfaatlarni ta'minlashdagi muammolarni o'rganish tadqiqotchilardan tizimli yondashuvni talab etadi. Chunki mazkur yo'nalishdagi muammolar keng qamrovli hisoblanib, ularning oqibatlari milliy xavfsizlikka tahdid sifatida namoyon bo'lishi, muammoni keltirib chiqaruvchi omillarning o'ziga xosligi bilan izohlanadi.

Shuning uchun shu kabi muammolarni o'rganishda umumiy va alohida talablar va tartib-tamoyillarga, bir so'z bilan aytganda, ilmiy tadqiqot metodologiyasining "oltin qoidalari"¹ga amal qilinishi lozim.

Boshqa muammolardan farqli o'laroq, milliy manfaatlarga tahdidlar o'rganilganda, aynan, eng avvalo, muammoli vaziyat, u bilan bog'liq tendensiyalar

va oqibatlari, milliy manfaatlarga tahdidlarning qamrovi hamda ta'sir darajasini aniqlashga alohida e'tibor qaritilishi lozim.

¹ Oltin qoida" sifatida matnda keltiriladigan talab, tamoyil va algortimlarning aksariyati mualliflik ishlanmasi hisoblanadi, ularning barchasi ham nazariyotchi olimlar tomonidan umumqabul qilingan talablar emas.



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Jumladan, mazkur yo‘nalishda quyidagi ketma-ketlikdagi ilmiy amallarni bajarilishi muammo yechimi uchun qo‘yilgan eng dastlabki muhim xarakterlardan hisoblanadi:

- 1) tegishli soha yoki yo‘nalishdagi milliy manfaatlar tizimlashtirilishi;
 - 2) manfaatlarni himoyalanganlik darajasini belgilovchi – muammoni shakllantirilishi;
 - 3) mazkur muammolarni tasdiqlovchi va ta‘sir darajasini belgilovchi mezonlarni aniqlanishi;
 - 4) milliy manfaatlarga tahdidlarni belgilab beruvchi indikatorlarni ishlab chiqilishi.
1. Milliy manfaatlarni tizimlashtirish nima uchun kerak?

Milliy manfaatlarni tizimlashtirilishi istalgan (ideal) holatni (tizimdan (sohadan) kutilgan natijalarni) aniqlashtirishga, istalgan holatga oydinlik kiritish esa muammoni shakllantirish va uni asoslashga imkon beradi.

Quyida yoshlar bandligi misolida muammoni shakllantirish uchun tegishli ketma-ketlikdagi ilmiy amallarni bajaramiz.

Jumladan, milliy manfaatni shakllantirishda masalaning dolzarbligini asoslashga, xususan bugungi kundagi olib borilyotgan davlat siyosati, islohotlar va tendensiyalarga oydinlik kiritilishi talab etiladi.

Jamiyatda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar bandligini ta‘minlashni tartibga solish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakat ijtimoiy barqarorligi yoshlar qatlamini manzilli himoya qilish, ularni munosib ish joylari bilan ta‘minlash bilan bevosita bog‘liq. Yoshlar orasida ishsizlik darajasining o‘sib borishi, jamiyatda ijtimoiy manfaatlar muvozanatining buzilishi, yoshlar orasida ijtimoiy tabaqalanishni kuchayishi bilan bog‘liq ijtimoiy xavf va tahdidlar kuchayishiga olib keladi. Bugungi kunda va kelajakda yoshlarning ish bilan bandligi ta‘minlanishi jamiyatning ijtimoiy barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi.

Olib borilyotgan **davlat siyosatini** yoritishda quyidagi ko‘rinishdagi ma‘lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Mazkur muammolarga ijobiy yechim topish maqsadida, 2023 yilning 11 aprel kuni Prezident Sh.M.Mirziyoyev raisligida yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda yoshlar bandligini ta‘minlash, sifatli ta‘lim bilan qamrab olish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda sog‘lom fikrlashlariga zamin yaratish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilandi.² Bunda birinchi marta 25 ta vazirlik va idora ma‘lumotlari o‘zaro uyg‘unlashgan elektron baza shakllantirilib, barcha yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, “mahalladan vazirlikkacha” tizimida ishlash choralari belgilab olindi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni amaliyotga samarali tatbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi³

² Yoshlar uchun yangi imkoniyatlar belgilandi. <https://president.uz/uz/lists/view/6145>. 11.04.2023 y.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6811936>.



Respublikadagi yoshlar bandligiga oid islohotlar yuzasidan quyidagilarni qayd etish mumkin:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirish, yoshlar bilan ishlash samaradorligini kuchaytirish, yoshlar bandligini ta‘minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilgan holda yoshlar bandligini ta‘minlash bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirib kelinmoqda.

2022 yilning o‘zida yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so‘m kredit berilib, 150 mingta loyiha ishga tushirilgan, 325 mingta ish o‘rni yaratilgan. 43 ming gektar ekin maydoni ajratilib, 435 ming yoshlar bandligi ta‘minlangan. 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya orqali asbob-uskuna, mehnat qurollari va kompyuter olib berilgan bo‘lsada, mamlakatdagi rasman ishsiz yoshlar soni 722 ming nafarni tashkil etmoqda⁴.

Sohadagi salbiy tendensiya sifatida quyidagi statistik ma‘lumotlarni keltirish mumkin:

2022 yilda 11 ta davlat oliygohining 11 ming nafardan ziyod bitiruvchilaridan 6,5 ming nafari ishga joylashmagan bo‘lsa, 143 ming nafar kollej va texnikumlarni bitirgan yoshlarning 30 ming nafari ish topa olmagan. Mazkur ko‘rsatkich, 2023 yilda 54% ni takshil etgan.

Mamlakatda mazkur sohani istiqbolli rivojlanishini ta‘minlash doirasida maqsadli ko‘rsatkichlarga ham alohida e‘tibor qaratilishi lozim⁵:

- mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta‘minlash orqali ishsizlik darajasini **7 foizgacha** tushirish;
- **400 ming nafar** yoshlarning bandligini ta‘minlash va muammolarini hal etishga erishish;
- yoshlarning ishsizlik darajasini **14 foizdan 11 foizga** kamaytirish;
- **700 ta** professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;
- har yili **500 nafar** iste‘dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborish;
- **14 ta** hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushini **50 foizga**, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini **30 foizga** yetkazish;
- o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini **axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida 100 foizga yetkazish.**

Yuqoridagi ma‘lumotlar, xususan davlat siyosati, maqsadli ko‘rsatkichlar va tendensiyalar asosida yoshlar bandligini ta‘minlash bo‘yicha **milliy manfaatni** shakllantirish mumkin:

Yoshlar bandligini ta‘minlash maqsadida mehnat bozorida talab va taklifni dinamik muvozanatini samarali boshqarish, yoshlarga munosib va yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratib borish, ularda ish beruvchilar talabi darajasidagi kasb-hunarlarini o‘zlashtirilishini ta‘minlash⁶.

⁴ Sa‘dullayev A. Yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlari. “Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma‘ruzalar to‘plami / Tuzuvchilar jamoasi. – T.: 2023. – B..

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi PF-37-son Farmoni, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini «yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida /<https://lex.uz/docs/6811936>

⁶ Zoxidov A. Axborot-tahliliy faoliyatda muammoning ta‘sir darajasini tadqiq etishning ayrim jihatlari. “Mamlakat milliy manfaatlarini ta‘minlashda axborot-tahliliy faoliyatni takomillashtirish: muammo va istiqollar” ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. STIBOM.--Toshkent, 2024.31 may. -B.54-59.



Milliy manfaatlar asosida **istalgan (ideal) holat** shakllantiriladi. Istalgan holat, odatda, milliy manfaatlarda ko'rsatilgan konseptual maqsadlardan kelib chiqqan holda amaldagi me'yoriy hujjatlar, xalqaro standartlar yoki ekspertlar fikrlari asosida shakllantiriladi.

Yoshlar bandligini ta'minlash bilan bog'liq istalgan holat quyidagi mezonlar (indikatorlar) asosida o'rnatilishi mumkin:

- 1) yoshlar orasida ishsizlik darajasini 7 foizdan kam bo'lishligini ta'minlash;
- 2) har yili **500 nafar** iste'dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o'qishga yuborish orqali yoshlar bandligini ta'minlashning sifatini oshirish;
- 3) professional ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini **50 foizga**, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini **30 foizga** yetkazish orqali yoshlarni kasb-hunarga o'qitishning takomillashgan tizimini yaratish.

1. Milliy manfaatlarni himoyalanganlik darajasi, ya'ni muammoning mavjud yoki mavjud emasligi qanday aniqlanadi?

Qayd etilganidek, istalgan holat asosida **amaliy muammo** va **ilmiy muammo** shakllantiriladi. Bugungi kunda ayrim tadqiqotchilar o'rtasida mazkur tushunchalar bilan bog'liq ayrim yangilish tasavvurlar ham mavjud.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, quyida tegishli tushunchalarga oydinlik kiritishga harakat qilamiz⁷.

***Muammoli vaziyat** – o'rganilayotgan obyekt taraqqiyotining nobarqarorligi, kelgusi taraqqiyot talablariga mos kelmaslik holatidir.*

***Muammo (amaliy muammo)** – ideal holat (qo'yilgan maqsad) bilan bugungi holat o'rtasidagi tafovut (tafovut qancha katta bo'lsa, muammoning qamrovi ham shunga mos bo'ladi).*

***Ilmiy muammo** – muammoni ilmiy aks ettirish shakli hisoblanadi, ya'ni mazkur muammoni yechishning ilmiy asoslari mavjud emasligi yoki yetarli darajada shakllanmaganligi, muammoni yechish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarning mavjud emasligi (u ma'lum sohada mavjud qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga va ularning yechimini topishga bo'lgan zarurat sifatida aks etadi).*

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishini olib borishda, eng avvalo, amaliy muammoni va uning asosida ilmiy muammoni shakllantirish talab etiladi. Mazkur algoritm asosida quyida ijtimoiy sohadagi amaliy hamda ilmiy muammolardan misollar keltiramiz.

⁷ Zoxidov A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2019. -B.61-66



Misollar⁸:

<p>1. Muammo: Yoshlar orasida ishsizlik darajasining yuqoriligi va havf darajasida kuzatilayotganligi. Ilmiy muammo: Yoshlar orasida ishsizlikni qisqartirishning ilmiy asoslangan samarali mexanizmini ishlab chiqishga bo'lgan zaruriyat.</p>
<p>2. Muammo: Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash sohasida korrupsion holatlarning saqlanib qolayotganligi. Ilmiy muammo: Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosiy-huquqiy mexanizmlarning samarasizligi (yoki siyosiy-huquqiy asoslarni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lgan zaruriyat).</p>
<p>3. Muammo: Mamlakatda oilaviy ajrimlarning ortishi. Ilmiy muammo: Mamlakatda oilaviy ajrimlarga olib kelayotgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan mexanizmlarning talabga javob bermasligi.</p>

2. Muammoning ta'sir darajasini belgilab beruvchi mezonlar qanday shakllantiriladi?

Milliy manfaatlar asosida shakllantirilgan istalgan holat va real holat o'rtasidagi tavovutni aniqlash orqali **amaliy muammoning** qamrovi aniqlanadi. Tafavutni aniqlash uchun holatga baho beruvchi mezonlar shakllantirilishi, o'rnatilgan me'yorlar va tegishli statistik ma'lumotlar asosida solishtirilishi lozim.

Quyida ijtimoiy sohadagi ayrim ijtimoiy muammolarni aniqlash va asoslash bo'yicha misollar keltirilgan:

1) Masalan, yoshlar bandligini ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq muammoning ta'sir darajasini aniqlash uchun miqdoriy va sifat jihatidan real holatni belgilangan me'yorlarga mosligi yuzasidan quyidagi mezon ishlab chiqildi:

Mezonlar	Istalgan holat (xalqaro me'yor)	Real holat
Yoshlar orasida ishsizlik darajasi	< 7%	14%
Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik darajasi	> 90 %	79 %

2) Masalan, demografiya sohasidagi muammolarni milliy xavfsizlik kesimida o'rganilganda oilaviy ajrimlar bilan bog'liq salbiy tendensiyalar yuzasidan quyidagi mezonni misol sifatida keltirish mumkin:

⁸ Maqoladagi misollar shartli ravishda keltirilgan bo'lib, aniq bir mamlakatga xos bo'lmisligi mumkin.



<i>Mezonlar</i>	<i>Istalgan holat</i> (<i>me'yor o'rnatilmagan</i>)	<i>Real xolat</i>
<i>Oilaviy ajralishlar ko'rsatkichi</i> (<i>har 100 ta oilaga</i>)	< 5 (<i>ayrim obyektiv sabablarga ko'ra</i> <i>har 100 nikohga 5 tagacha</i>)*	<i>O'rtacha 25 ta</i> <i>oila</i>

Muammoning ta'sir darajasini belgilashda, odatda, quyidagi xavf darajalaridan foydalaniladi⁹ :

- **Tahdid** – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaalariga xavf soluvchi sharoit va omillar jamlanmasi.
- **Xavf (xatar)** – shaxsning huquq va erkinliklarining jiddiy va muntazam ravishda buzilishi, jamiyatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini yemirish, davlatning hayotiy muhim manfaatlariga jiddiy zarar yetkazish qobiliyatiga ega ehtimoldagi (yoki real) voqea/hodisa/jarayon/holat.
- **Tahlika** – bevosita muayyan tahdid xarakteriga ega bo'lmasa-da, biroq, shubhasiz ravishda bartaraf etuvchi va oldini oluvchi chora-tadbirlarni amalga oshirilishini talab etuvchi holat/hodisa/vaziyat yoki ularning majmuidir.
- **Risk** – tahlikaviy, xavf yoki tahdid holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni kuchayishi.

O'z navbatida, tizimli tahlilning indikativ yondashuvi asosida ham mazkur kategoriyalarning xavflilik darajasini aniqlash imkoniyati mavjud. Bunda, shartli ravishda tahlika – inqiroz oldi (IO) holat, xavf – inqiroz oldi holatning yuqori cho'qqisi va inqiroz (I) holatning boshlanish bosqichi, tahdid – inqiroz holat sifatida baholanishi mumkin. Indikatorlar – tizimning (tarmoqning) faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi ko'rsatkichi bo'lib, tizimga va uning tarkibiy qism(element)lariga tahdidlarning tarkibi, qamrovi va miqyosini to'liq tavsiflab beradi. Indikatorlar holatini chegaraviy qiymatlarga solishtirish orqali sohaning umumiy holatiga, uning mustaqil jabhalari yoki alohida sohalarning real holati bo'yicha ham miqdoriy, ham sifat jihatidan baho berish mumkin.

Indikatorlar	Me'yor	Taxlika		Hatar		Tahdid	
		IO1	IO2	IO3	I1	I2	I3

Indikativ yondashuvda “risk” va “tahlika” darajalarini “inqiroz oldi” holatiga, “xavf” va “tahdid” darajalarini “inqiroz” holatiga tenglashtirish orqali muammoni asoslash va uning ta'sir darajasini belgilash mumkin.

Quyida ijtimoiy sohasidagi muammolarning ta'sir darajasini indikativ yondashuv asosida aks ettirishga harakat qilamiz.

Mazkur jadvalda muammo yaqqol ko'rinib turibdi, lekin uning xavf darajasini aniqlash uchun indikatorlarning chegaraviy qiymatlarini o'rnatish va real holat bilan taqqoslash lozim.

* Oilaviy ajrimlar bo'yicha chegaraviy qiymat (me'yor) o'rnatilmagan, ayrim obyektiv sabablarni inobatga olgan holda, ekspertlar fikri asosida belgilangan nisbiy ko'rsatkich

⁹ Manba: Bobokulov I.I. Milliy xavfsizlikni ta'minlashning nazariya va amaliyoti. O'quv qo'llanma – T.: Oliy maktab, 2019. – 48-52-betlar.



Indikatorlar	Me'yor	IO1	IO2	IO3	I1	I2	I3	Real holat
Yoshlar orasida ishsizlik darajasi	< 7%	10	13%	16%	19%	22%	25%	14%
Professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik darajasi	> 90 %	85	80	75	70	65	60	79 %
Oilaviy ajralishlar ko'rsatkichi (har 100 ta oilaga)	< 5%	10	15	20	25	30	35	27 %

“Yoshlar orasida ishsizlik darajasi” bilan bog‘liq indikator orqali muammoning ta’sir darajasini “inqiroz oldi 3” yoki “hatar” darajasida baholash mumkin.

“Professional ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bandlik darajasi” bilan bog‘liq indikator yordamida mazkur muammoning ta’sir darajasini “inqiroz oldi 3” yoki “hatar” holatida baholash mumkin.

“Oilaviy ajralishlar ko’rsatkichi” bilan bog‘liq indikator orqali muammoning ta’sir darajasini “inqiroz 2” yoki “tahdid” bosqichida baholash mumkin. Ya’ni, mazkur holatda, vaziyatning istalgan holatdan yiroqlashuvi tahdid darajasini yaqinlashayotganligidan darak bermoqda.

Indikativ yondashuv o’rganilayotgan tizim tuzilmasi, undagi asosiy va tagmuammolarning holatini, tizimning elementlari o’rtasidagi aloqalarning sifati va tavsifini izchil va aniq tarzda aniqlab bera oladi¹⁰.

Indikatorlarni ishlab chiqishda muammoning qamrovini aniqlash (istalgan holat va real holat o’rtasidagi tafovut) muhim hioblanadi. Ya’ni vaziyatning istalgan holatdan yiroqlashuvi tahdid darajasini yaqinlashayotganligidan darak beradi. Biror sohadagi milliy manfaatlarga tahdidlarni aniqlashda asosiy muammo bilan bir qatorda tagmuammolar¹¹ ham to’liq inobatga olinishi lozim. Shunda tizimga (sohaga) to’liq baho berish imkoniyati mavjud bo’ladi.

Umuman, barcha turdagi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi doimiy takomillashib turishi zarur bo’lgan va o’rganilayotgan muammo tavsifiga mos keluvchi metodologik asosning va dasturiy rejaning to’g’ri yaratilganligiga bog‘liq.

Yuqorida ko’rilgan ilmiy tadqiqot dasturi elementlarini aniq va mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirish tadqiqot ishini to’g’ri yo’ldan borishiga va ko’zlangan natijaga samarali erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqotchilardan dissertatsiya dasturini tuzishda uning barcha elementlarini mazkur maqolada keltirilgan tartibda bosqichma-bosqich amalga oshirishi va qo’yilgan talablarga to’liq amal qilishlari maqsadga muvofiq bo’ladi.

¹⁰ Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: Uchebnik. Pod red. V.K.Senchagova. 2-izd. – M.: Delo, 2005; Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya: Ucheb.posobiye dlya vuzov. Pod red. prof. L.Ye.Strovskogo. – M.: YUNITI-DANA, 2003.; Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: Uchebnik. Pod red. Ye.A.Oleynikova. – M.: Ekzamen, 2005.

¹¹ **Tagmuammo** – asosiy muammoning tarkibiy elementi, shuningdek, mustaqil muammo sifatida o’rganilishi lozim bo’lgan istalgan holat va real holat o’rtasidagi tafovut (mualliflik talqini).



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2024 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6811936>.
2. Sa’dullayev A. Yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlari. “Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalar to‘plami / Tuzuvchilar jamoasi. – T.: 2023. – B..
3. Zoxidov A. Axborot-tahliliy faoliyatda muammoning ta’sir darajasini tadqiq etishning ayrim jihatlari. “Mamlakat milliy manfaatlarini ta’minlashda axborot-taxliliy faoliyatni takomillashtirish: muammo va istiqbollari” ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami. STIBOM.--Toshkent, 2024.31 may. -B.54-59.
4. Zoxidov A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2019. -B.61-66
5. Bobokulov I.I. Milliy xavfsizlikni ta’minlashning nazariya va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma – T.: Oliy maktab, 2019. – 48-52-betlar.
6. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossi: Obshiy kurs: Uchebnik. Pod red. V.K.Senchagova. 2-izd. – M.: Delo, 2005; Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya: Ucheb.posobiye dlya vuzov. Pod red. prof. L.Ye.Strovskogo. – M.: YUNITI-DANA, 2003.; Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: Uchebnik. Pod red. Ye.A.Oleynikova. – M.: Ekzamen, 2005

